



## EKZISTENSIAL QARASHLARDA DUNYONING MOHIYATI

*Abdullayev Humoyun Anvarjon o'g'li*

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti*

*Xalqaro munosabatlar fakulteti 1-bosqich talabasi*

*abdullayevhumoyun59@gmail.com*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada dunyo tartibotida inson oili o'zi nima degan savol o'rtaga qo'yiladi. Jahon urushlari insonlarning dunyoqarashini qay darajada o'zgartirdi! Ekzistensializm o'zi nima va uning dunyo tizimiga qanday ta'siri bor! Inson tabiati o'zi qanday va dunyo tizimi qanday yuzaga keldi va uning kelajagi kimning qo'lida degan savollarga javob beradi!*

**Kalit so'zlar:** *Inson tabiati, Ekzistensializm, Jan Pol Sart, Alber Kamyu, Uilyam Golding, dunyo tizimi, inson manfaati, tinchlik, sivilizatsiya, kelajak.*

Inson bu dunyoga kelibdiki, bu dunyoni tanishga, rivojlanishga va yetuklikka intilib yashagan. Albatta bu yo'l davomida turli xil o'zgarishlar, rivojlanishlar va afsuski urushlar va inqirozlar ham ro'y berdi. Shu asnoda insoniyat bir necha marotaba dunyo tizimini o'zgartirishga ham muvaffaq bo'ldi. Tarixdan insoniyatning agrar tizimdan sanoatga asoslangan tizimga o'tganligi keyinchalik esa bu tizim axborotlashgan tizimga yetib kelganligi hech kimga sir emas. Xozir esa biz bu tizimdan ham chiqib sun'iy ongga asoslangan davrga kirib boryapmiz. Shu o'zgarishlar, ayniqsa urushlar fonida ko'plab aybsiz insonlarning halok bo'lishi inson qadrini savol ostiga qo'ydi. Har bir insonning o'z fikri va qarashi mavjud bo'lganday, shu asnoda dunyo tizmiga turli xil qarashlar ya'ni siyosiy va falsafiy mafkuralar shakllandi. Ba'zi insonlarning manfaatlari uchun kurash fonida dunyo tizimini o'zgartirishga bo'lgan xohishlar millionlab begunoh odamlarnig nobud bo'lishi esa dunyo tartibotida, afsuski xech qanday ma'no bildirmay qo'ydi. Shu



asnoda ekzistensializm falsafiy mafkurasi paydo bo`ladi. Ya`ni inson qadri va bu hayotda nima qilishi lozimligi va maqsadi so`roq ostiga qo`yildi. O`zi dunyo tartibotida manfaatlar to`qnashuvi yuz berayotgan bir paytda inson qadri o`z ma`nosini yo`qotib bormoqda! Bu esa keyinchalik odamlar orasida ekzistensialistik inqirozni keltirib chiqarishi esa ehtimoldan holi emas.

Ekzistensializm – inson qadri [1; S.Yo`ldoshev va boshq. – B. 218]. Aynan 20-asrlarda rivojlanib ko`plab baxs-munozaralarga sabab bo`lgan bu mafkura asosan Fransiya go`shasida rivojlandi. Jan Pol Sartr, Alber Kamyu va Buyuk Britaniyalik Uilyam Golding bu mafkurani o`z qarashlari orqali asarlarida, hikoyalarida jonlantirishdi. Qanday qilib bu mafkura o`zi yuzga keldi? Tabiiyki bu yo`lda jahon urushlari juda katta rolni o`ynab berishdi. Aynan jahon urushlari davrida inson qadri degan narsalar yo`qqa chiqa boshladi, davlatlar o`rtasida manfaatlar to`qnashuvi, dunyoni qaytadan bo`lib olishga bo`lgan xarakterlar, shaharlarning, qadimiy obidalarning vayron bo`lishiga ya`ni tirik tarixni yo`qolishiga olib keldi. Eng achinarlisi esa bu urushlarda millionlab odamlarning halok bo`lishi va izsiz yo`qolishi ko`plab oilalarni otasiz va onasiz qolishiga olib keldi. Bu esa albatta insoniyatni dunyoga nisbatan boshqa tomondan qarashga va yondashishga olib bordi. Aynan shu yo`lda boshlovchilar deb Jan Pol Sartr, Alber Kamyu va ingliz ekzistensialisti Uilyam Goldingni misol keltirsak bo`ladi.

Jan Pol Sartr ekzistensializm g`oyasini asosan omma orasida yoyib, rivojiga eng katta hissa qo`shgan deb aytiladigan fransuz faylasufi aynan 1-jahon urushi ozodlik harakatida xizmat qiladi, bu hodisalarni o`z ko`zi bilan ko`rgan bu yozuvchi keyinchalik “Borliq va Yo`qlik qissasi”, “Ozodlik yo`li” va “O`shish davri” asarlarini yozadi. Bu asarlarda u inson erkin bo`lishi kerakligi va hayotda bir ma`no yo`qligi ammo bu ma`noni insonning o`zi yaratishi lozimligini ta`kidlab o`tadi. Inson hayotida qilayotgan har bir tanlovi uchun javob berishi lozimligi ta`kitlanadi. Jan Pol Sartr shunday yozadi: Mavjudlik mohiyatdan oldin keladi”. Ya`ni inson erkinligi 1-o`ringa qo`yildi. Alber Kamyu jazoirlik bo`lsada o`sha paytda Jazoir Fransiya



mustamlakasi bo'lgani bois fransuz tilida ijod qilgan yana bir mashhur faylasuflardan biridir. U ham inson erkinligi haqida romanlar yozgan. 2-jahon urushi yillarida Fransiyaga borib partizanlik harakatiga borib qo'shiladi va o'sha yerda Sartr bilan tanishadi, yozuvchining "Begona", "Sizif haqida afsona" va "Vabo" nomli asarlari chop etildi. Bu asarlarda hayotda ma'no yo'qligi, ammo inson bu ma'noni o'z qo'li bilan o'zi yaratishi lozimligi aytib o'tiladi. Bu oqim nafaqat Fransiyaga balki Buruk Britaniyada ham keng rivojlandi va bu yo'lda asosiy rollardan birini Uilyam Golding bajardi, olimlar tomonidan Golding asarlari ekzistensialistik deb aytilgan bo'lsada, u buni rad etgan. Ammo uning g'oyalari bu oqim bilan bevosita bog'liq hisoblanadi [2]. Uning mashhur "Pashshalar hukmdori" asarida esa inson zotiga nisbatan salbiy tarafdin yondashiladi [3]. Yozuvchi inson tabiatini tabiatan yovuzlik va shafqatsizlikka moyil deb tasvirlaydi va bu asar orqali yovuz tabiatimizga qarshi kurashishga chaqiradi. Bu uch faylasuf, yozuvchilarni nima bog'laydi? Inson erkinligiga bo'lgan chaqirish! Aynan jahon urushlaridagi o'limlar, ko'plab oilalarning yaqinlari halok bo'lishi insoniyatning dunyoqarashi katta zarba berdi desak adashmagan bo'lamiz, shu asnodan ham ekzistensializm paydo bo'ldi- inson erkinligi. Shundan so'ng bu soha vakillari aynan shu urush davrlaridan so'ng xalq orasida mashhurlikka erishdi. Odamlar hayot va o'lim o'rtasidagi chegara haqida chuqurroq o'ylay boshlashdi. Urush insonlarni hayotdagi maqsadi, ma'nosi, hayot yo'li va o'lim mavzularini chuqurroq o'rganishga chaqirdi. Germaniya natsizimining yaxudiyarlarga nisbatan "holokost" siyosati, Xitoy davlatining hudida istiqomat qilayotgan mongollarga nisbatan xitoylashtirish siyosati, afsuski inson o'z manfaatlari uchun har qanday inson erkinligi va tinchlikka bo'lgan huquqidan mahrum qilishga tayyorligini ko'rsatdi.

O'zi inson qanday qilib bunday dunyo tuzilishiga yetib keldi? Tarixdan ma'lumki inson faqat yetuklikka intilib yashagan. Bir necha marotaba dunyo tizimlarining o'zgargani esa hech kimga sir emas. Ammo bu yo'lda hokimiyat, davlat boshqaruviga bo'lgan talab alohida ajralib turgan. To'g'ri davlatga davlat



boshlig'I lozim, ammo bunda ba'zida millionlab insonlarning halok bo'lishi adolatdan bo'lmaydi. Insoniyat tarix davomida ko'plab imperiyalar, davlatlar qurdi, doimo o'z xohishlarini osonroq va qulayroq qilish uchun ko'plab kashfiyotlar yaratdi. Dunyoda qudratli bo'lmoq va qimmatbaxo resurslarga ega chiqmoq uchun boshqa xalqlarni va davlatlarni bosib oldi. Ammo shu yo'lda baxt, ishonch, muhabbat, sodiqlik, sog'inch deb ataladigan xislatlarimizni ham kashf qildik. Urush yillarida albatta bu hislatlar ko'plarga begona bo'lib qo'rquv, ishonchsizlik va hayotdan ma'no qidirish insonlarni cho'rg'ab oldi. Aynan mana shu holat ekzistensialistik inqirozni insoniyatda keltirib chiqardi. Inson hayotdan ma'no izlab, uni topa olmasligi, uni tobora hayotdan sovushiga eltib bordi. Insonlarning bir-birini manfaat, mol-davlat va din bahonasida bir-birlarining o'ldirishi inson qanday ishlarga qodir ekanligini ko'rsatib qo'ydi. Germaniya natsizmining yaxudiy xalqiga nisbatan diniy Holokosti vaqti 6 millionga yaqin yaxudiy o'ldiriladi. Saba bi esa din bilan bog'liq antisemitizm edi. Yoki Xitoy davlatining mongollarga nisbatan xitoylashtirish siyosati davomida ham, umumman urush vaqtida inson erkinligi unutildi. Faqatgina mol-davlat, hududlar va qimmatbaxo resurslar kurashigina ko'zga ko'rindi. Insoniyat bu urushlardan omon chiqdi to'g'ri, ammo hozirda davom etayotgan Rossiya-Ukraina urushi va Eron-AQSh urushlari dunyo deyarli xech qachon tinch bo'lmasligini ko'rsatmoqda. Bu urushlarda millionlab begunoh fuqarolarning halok bo'lishi esa ekzistensial qo'rquvni insonlar orasida keltirib chiqarmoqda. Bu esa dunyo tizimiga tog'ridan-to'g'ri xavfdir. Chunki dunyo asosini inson tashkil qiladi va inson psixologiyasidagi o'zgarishlar dunyo tizimni o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Inson tezlikka bilan mukammallikka intilmoqda, tarixdan bu odatiy xoldir. Sun'iy intellekt, aqlli robotlar, aqlli o'zi ish bajaradigan uy jihozlari allaqachon hayotimizning bir bo'lagiga aylanib bo'ldi. Hozirda dunyo tartiboti tezkorlik bilan o'zgarimoqda barcha davlatlar o'z manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yib, kerak bo'lsa harbiy kuchni kuchaytirmoqda. Bunday holda faqat diplomatiya yagona yechim bo'lib qolyapti. O'zbekistonning bu borada olib



borayotgan siyosati esa albatta taqsinga loyiqdir. O'zbekistonning barcha davlatlar, jumladan yevropa, osiyo va amerika qit'asida olib borayotgan hamkorlik va do'stlik aloqalari, dunyo manfaatlar to'qnashuvi emas, balki yer birgalikda himoya qilishimiz kerak bo'lgan uyimiz ekanligini isbotlamoqda. Shu o'rinda inson taqdiri haqida so'z borar ekan 21-asrgacha inson ko'plab sivilizatsiyalardan, urushlardan o'tib keldi. O'zini o'rab turgan dunyoni bilishga tarixdan harakatni boshlagan inson hozir juda ko'plab kashfiyotlar va rivojlanishga ega dunyoni qurdi. Ammo bu yo'lda biz bu qulayliklar milliardlab insonlarning o'limi evaziga kelganini va yashayotgan hayotimizni har bir daqiqasini qadrlab, faqatgina hamkorlikdagina tinch va sokin kelajakka erishish mumkinligini anglashimiz lozim. Afsuski bu xozircha faqatgina tirik sarob bo'lib qolmoqda.

Xulosa o'rnida aytishim joizki har bir inson o'zga bir olamdir. Shu sababli bizda turli xil dinlar, mafkuralar, boshqaruvlar mavjud. Ammo insoniyat shu qarashlarni birlashtirib hozirga yetib kelgan yangi olamni yaratdi. Ammo bu milliardlab odmalarning halok bo'lishi evaziga yuz berdi. Afsuski bu yo'lda manfaatlar va mol-dunyo insonuchun har doim asosiy resurs bo'lib qolaverdi, shu bilan birga dono odamlar ham yashadi va insoniyat shu paytgacha yetib keguna qadar bo'lgan yo'lda juda katta hissa qo'shdi. Shundan xulosa qilishimiz lozimki kelajak birgalikda va hamkorlikda yaratilmog'i lozim. Zero barchamiz insonmiz va insoniyatning kelajagi faqatgiba insoniyat qo'lidadir. Manffat, mol-davlat, qimmatbaho resurslar va hududlar uchun kurashlar afsuski barchasi o'tkinchidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Yo'ldoshev Sh. Yangi va eng yangi davr G'arbiy Yevropa falsafasi. – T.: “Sharq”. 2002. – B. 218.
2. Философия: Учебник / Под ред. А.Ф. Зотова, В.В. Миронова, А.В. Разина. 2-е изд., перераб. и доп.— М.: Академический Проект; Трикста, 2004.— 688 с.— («Gaudeamus»).
3. William Golding. Lord of the Flies. Penguin Books, 1954. – 29 p